

## MU'INIDDIN FAROHIYNING "MA'ORIJ AN-NUBUVVA" ASARINING TURKCHA TARJIMALARI

**Ibragimova Muhabbat Baxodirovna**

*O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi magistranti*

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning zamondoshi bo'lgan, ular bilan ilmiy aloqalar olib borgan buyuk olim Muhammad ibn Muhammad Miskin al-Farohiy temuriylar davrida o'zining mashhur asari, Payg'ambar (s.a.v) siyratlariga oid "Ma'orij an- nubuvva" asarini yozgan.

Manbalarda olimning hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Uning to'liq ismi ba'zi manbalarda Mu'inuddin Muhammad Amin bin Hoji Muhammad Farohiy Hiraviy yoki Mu'iniddin ibn Hoji Muhammad al-Farohiy ham bo'lib kelgan.

Farohiy manbalarda mashhur olim sifatida tilga olinadi. Hadis ilmi bilan birgalikda yaxshi xattot bo'lganligi, ayni paytda sufiylik darajasiga yetganligi ham ma'lum. Shu jihatdan al-Miskin, qozi, muhaddis, voiz va sufi kabi ko'p sohada faoliyat yuritgan. Farohiy va uning ba'zi asarlari haqida shunday ma'lumot keltirilgan: "Hoji Muhammad Farohiy 907/1501 yilda vafot etgan bo'lib, o'zini Mu'in al-Miskin nomi bilan ataydi. U ba'zilarining taklifiga binoan Muso (a.s) haqida "Musonoma" asarini bitadi. Bu asarni Muso (a.s) haqidagi Qur'oni karim ma'lumotlari va payg'ambarlar qissalari asosida tuzgan". Mu'iniddin Farohiy asosan islom ilmlari, adabiyot, tarix fanlariga oid asarlar yozib qoldirgan. Olimning asarlari orasidan "Ma'orij an- nubuvva" asari siyrat ilmida o'ziga xos o'ringa egadir. Mu'iniddin Farohiyning siyratga bag'shlangan mazkur asari Payg'ambar (s.a.v) va undan oldingi payg'ambarlarning ma'lum tarixi va ular haqidagi har xil rivoyatlar bilan boyitilgan batafsil tarjimai holidir. Bu asar haqida manbashunoslik bobida batafsil ma'lumot beriladi. Hhamda ushbu asarda Payg'ambar (s.a.v)ning siyratlari, hayot yo'llari, tarjimai hollari va islom tarixini bayon qilgan. Muallif ushbu asarni Hirotda bir do'stining iltimosiga ko'ra 891/1485 yilda yozgan hamda boshda payg'ambar siyrati haqida kichik risola yozishni niyat qilgan. Keyinchalik bu mavzuga oid 25 yil davomida katta hajmli ushbu asarni yozgan.

Temuriylar davrida yozilgan "Ma'orij an- nubuvva" asarning hozirda dunyo kutubxonalari va yurtimizda bir qancha qo'lyozmalari va toshbosmalari saqlanmoqda. hozirda ushbu asarning turk va urdu tillariga qilingan ba'zi tarjimalari aniqlandi.

"Ma'orij an- nubuvva" asarining Usmonlilar davrida ikki tarjimasi amalga oshirilgan. Ikki tarjimaning biri Xoja Nishanji Jalalzoda Mustafo Efendi (vaf.975/1567-68)Qonuniy Sulton topshirigi bilan tarjima qilgan. Asar *Mearicu'n Nubuvve fi Medarici'l Futuvve: Delail-i Nubuvvet-i Muhammadi va Shamail-i Futuvvet-i Ahmedi* deb nomlangan. Mazkur tarjimadan keyin asarning shuhrati Anadoluda yanada oshdi. Hozirda mazkur tarjimaning nusxalari Sulaymoniy kutubxonasi, Fotih kolleksiyasi 4289 raqam ostida, Serez kolleksiyasi 1813 raqam ostida va Millet kutubxonasi Ali Amiri Efendi kolleksiyasi 1131 raqam ostida saqlanmoqda. Asarining ikkinchi tarjimasi Altiparmak Mehmed bin Mehmed (vaf.1033/1623) tomonidan amalga oshirilgan.

Altiparmak tarjimasining nomi xuddi Jalalzodaniki kabi *Mearijun Nubuvve fi Medarijil FutuvveDelail-i Nubuvvet-i Muhammediy va Shamoil-i Futuvvet-i Ahmedi* deb nomlangan. Altiparmakbu oxirgi izohli tarjimoni asliyat tili forschadan tarjima qilgan. U avvalgisidan ko'ra ta'sirchanroq bo'lib, butun G'arbiy turklar orasida, ayniqsa Anadoluda mashhur bo'ladi. Ushbu tarjima o'z tarjimoniga nisbatan "Altiparmak" nomi bilan tanilgan bo'lib, keyinchalik M. Faruk Meyan bu tarjimoni soddalashtirgan. Ushbu soddalashtirilgan nashr 11 marta nashr etilgan.

Oltibarmak ushbu tarjimasining kirish qismida Allohga hamd va go'zal maqtov hamda Rasululloh (s.a.v.)ga go'zal salovotlar bilan boshlaydi. Hamd va salovotlarni keltirishda xuddi Mu'iniddin Farohiy kabi hadis va Qur'on oyatlari bilan ifodalaydi. Oltibarmak Payg'ambar (s.a.v.) go'zal ta'rif berishda metafora (o'xshatish)dan keng foydalangan, shuningdek o'zni bilan Payg'ambar (s.a.v.)ga nisbatan atalgan baytlar ham keltirgan. Qolaversa, u zotning Tavrot va Injilda kelgan sifatlarni ham bayon qilib o'tgan.

Oltibarmak kirish qismidagi hamd va sanodan so'ng Mu'iniddin Farohiy shaxsiga va uning *Ma'orij an-nubuvva* asariga to'xtalib o'tgan. Tarjimon Farohiy shaxsiyatiga quyidagicha ta'rif berib o'tadi: "Siyrat ilmi cho'qisidan uchib o'taoladigan qushi, va'z va nasihat maydonining kalxori Mu'in ismli valiy Hirot shahrida kechayu kunduz, oy-yil hadis va tafsir ilmidan, hamda ko'ngil ahlining qalblariga pand-nasihatlarni bergandir. Uning sahifalarini Qur'on bayoni kashtadek bezab turar edi. U chanqaganlarni bilim bilan qondirar edi. Yarador qalblarni va gunoh ma'siyat kasalligiga chalingan muhtojlarga o'z nasihatlarini bilan malhamlar tayyorlab berar edi. Bu ilm sohasida u ko'plab qimmatli kitoblar yozgan, tafsir va hadisga bag'ishlangan ko'plab asarlar ham yaratgan. Shu bilan birga, kambag'al va kambag'allarning kiyinishi uning o'ziga xos belgisiga aylandi va hayo va oddiylik uning asosiy odatiga aylandi. U Mu'in-i Miskin, ya'ni faqir Mu'in nomi bilan mashhur bo'ldi. Alloh taolo uni jannatda tinch va osoyishta qilsin, rahmati va roziligidan saxiylik bilan ato etsin. Xo'sh, bu muhtaram Mu'in-i Miskin bizga unutilmas tuhfa - marvarid va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan go'zal iboralardan tashkil topgan bu buyuk va qimmatli kitobni qoldirdi. Darhaqiqat bu kitob siyar ilmida yagonadir. Qalb ko'zi bilan fikr yuritilsa bu kitob aql va qalblarni o'ziga tortadi. Uning baland qasridan Jannati a'la kabi "ostidan anhorlar oqib turadi" oyati kabi obi-hayot oqar edi. Kitobning har bob va faslida Vahiy, Rayhon va Jannati Na'im kabi so'zlar bitilgan. Har bir ravoq va ayvonida "Albatta sen eng yaxshi axloq ustida san" yozilgan va bu kitobni "Ma'orij an-nubuvva" deb nomladi. Bu latif ta'rifni so'zboshi, to'rt rukn va xotimada tasvirlagan"

Mazkur kirish qismi davomida tarjimon o'z biografiasini ham keltirib o'tadi va bu asarning tarjima qilishining ba'zi sabablari haqida ham aytib o'tgan: "Men esa kambag'al va kamtar, kamchiliklari ko'p, har lahza Ollohga muhtoj, Olti Barmak (Olti barmoq) laqabi bilan mashhur Muhammad ibn Muhammad qirq yilga yaqin Qur'on va hadislarni o'rganishga xizmat qildim. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Muhammad Mustafoning shariatini odamlarga o'rgatdim. Men uzoq vaqt mamlakatning Yevropa qismida talabalarga dars berdim, o'ttiz yil davomida arab mamlakatlaridagi tariqatlarining ahvolini keksalik yoshga yetgunimga qadar o'rgandim, shunda men o'zimga shunday insho qoldirayki, hamma odamlarga foydali, har bir mo'min uchun qiziqarli bo'ladi, dedim va boshlagan ishlarim o'lim sababli to'xtab

qolmasin. Rasululloh (s.a.v.)ni yaxshi ko'radiganlar va bu payg'ambarning barcha ummatlari, o'qish yoki bu kitobni tinglab, har safar meni eslashsin va men uchun Fotiha va duo o'qishsin.

Asl nusxada bo'lgani kabi, men ma'lumotlarni bitta kirish, yakunning to'rtta bobi shaklida joylashtirdim. Muqaddima (muqaddima)da hamdu sanolar ham, Alloh taolaga munojotlar ham, Payg'ambarimiz (s.a.v.) sharafiga maqtovli she'rlar (qasidalar) va salomlar (salovatlar) ham o'rin olgan".

Oltibarmak so'zining oxirida asarning muqaddimasida kelgan boblarda tamhid va munojot, Payg'ambar (s.a.v.)ning sifat va fazilatlarini aynan 12 tadan iborat ekanligini, siyrat ulamolari ta'viliga ko'ra Payg'ambar (s.a.v.)ning Robbiul avval oyining 12- kunida tug'ilganliklari sababiga bog'laydi.

Keyinchalik Oltibarmakning bu tarjimasini A.Faruk Miyan tomonidan ixchamlashtirilib qisqartirilgan. Faruk Muyan qisqartirmasi avvalida Mu'iniddin Farohiy shaxsiyatiga va uning ilmiy merosi haqida, so'ng Oltibarmak hayoti va ilmiy merosiga to'xtalib o'tgan. Faruk Muyan kitobxonga bu kitobning kitobxonlarga yetib borishidan va ularni bu asar ilmidan baxramand qilishidan, qolaversa Ahli Sunna va al - Jamoa yo'lida Hanafiy ta'limotida bo'lgan bunday asarlarni kitobxonlarga taqdim qilayotganligidan mamnun ekanligi haqida ham o'z fikrlarini bildiradi. Shuningdek u adashgan toifalar va bidatchi guruhlar hamda zalolat yo'lida yurganlarni qoralab Ahli sunna va al- jamoa yo'lida va Hanafiy ta'limotida sobit bo'lishga chaqiradi. Faruk Muyan o'z so'zini quyidagi jumlar bilan tugatadi: "Buyuklarimizning "Kimki to'rt mazhabdan birini qabul qilmasa va unga amal qilmasa, adashgan bo'ladi", deganlari ajoyib. Darhaqiqat, bizning zamonamizda mazhablarga qarshi chiqqanlar, hatto mazhablarni jaholatning natijasi deb biladiganlar, ilohiy ilhom bilan kelgan maxfiy ilmlarni inkor etayotganlar, tasavvuf va uning vakillarini, ya'ni Ja'far Sodiq, Hasan Basriy, Ibrohim Adham, Fudayl kabi kishilarni tan olmaydilar. Ibn Iyod, Ma'ruf Karxi, Boyazid Bistomiy, Abdulqodir Giyloniy, Shahobiddin Suhravardi, Sayyid Ahmad Rufoiy, Najmiddin Kubro, Shoh Naqshband Muhammad Buxoriy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Imom Rabboniy. Bu ilm, amal, odob va axloqni, bir so'z bilan aytganda, shariat timsoli bo'lgan barcha narsalarni buzib ko'rsatuvchilar, albatta, adashadilar va ularning ko'rinishi oldindan bildirilgandir. Alloh taolo bizlarga o'zining sevimlisi Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning shafolatlarini nasib etsin! Xato va nuqsonlarimizni ezgu niyat va mahbubiga, sahobalariga, tobeinlariga, mujtahid imomlariga, ulamo va avliyolarga bo'lgan muhabbatimiz uchun kechirsin. Olamlarning Robbi, omin!"

Faruk Muyan kitobxonga qarata aytgan so'zida adashgan zalolat yo'lida yuruvchi toifalarning ba'zi buzuvchi qarashlarini ham fosh qilib, o'quvchiga quyidagi o'z tavsiyalarni keltirib o'tgan: "Hurmatli o'quvchi! Rasululloh (s.a.v.)ning shafolatlarini so'rashni kufr deb bilgan adashganlarga aldanib qo'ymang, ular solihlar (avliyolar) qabrlarini ziyorat qilishni shirkning ko'rinishi deb biladilar. Ulug'larga xayrixohlik va muhabbat bilan munosabatda bo'ling, chunki ularning sevgisi najot vositasiga aylanishi mumkin. Ahli Sunnat ulamolari rivoyat qilgan narsalarni inkor qilmang! Ularning kitoblari va fikrlari haqidagi raddiyalarni o'qing! Ushbu ma'lumotni sizga etkazish bizning burchimizdir va siz aytilgan

narsalarni yaxshi qabul qilishingiz va ishonch hosil qilish uchun aql yordamida tekshirishingiz va tafakkur qilishingiz kerak.”

Faruk Muyanning mazkur qisqartirmasi nihoyatda qisqartirilgan bo‘lib, muqaddimadan avvalgi kirish qismi keltirilmagan. Muqaddima orasida kelgan nazm uslubida berilgan hamd va sano qisqartirilib, Farohiy tomonidan keltirilgan ba’zi baytlar ham tushirilgan. Faqat rivoyatlarigina tarjima qilingan. Qo‘lyozmada keltirilgan oyatlarning arabcha matnini tarjimon keltirmay, faqat tarjimasini bilan kifoyalangan. Shuningdek mavzularni bob va fasllarga ajratmay, mavzuning nominigina keltirib o‘tgan.

Faruk Muyan qisqartirmasi oxirida Oltibarmoq tarjimasini va uning shaysiyati haqida bir qancha olimlarning fikrlarini ham keltirib o‘tadi. Shu bilan birga Farohiy Ma’orijda keltirmagan , ammo qur’oni karimda zikri kelgan payg‘ambarlar haqida qisqa ma’lumotlar keltirgan.

Mu’iddin Farohiyning "Ma’orijan-nubuvva" asarining Oltibarmak tomonidan amalga oshirilgan tarjimasining ham bir necha bosma nusxalari mavjud. hozirga qadar ushbu qisqartirma Turkiyada 11 marta nashr qilingan.